Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 347

IJTIMOIY MUNOSABATLARDA JAMIYAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLANISHNING ZARURATI

Shohinurbek Shuhratjon o‘g‘li Muhammadjonov*
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ shohinurmuhammadjonov8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyat xavfsizligi va ijtimoiy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning mazmun-mohiyati hamda jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyatda xavfsizlik tushunchasining kengayib borishi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axborot va ma’naviy omillarning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, jamiyatda o‘zaro ishonch, hamjihatlik, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas’uliyatining xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar

Jamiyat xavfsizligi, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy adolat, o‘zaro ishonch, qonun ustuvorligi, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy nizolar, axborot tahdidlari, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy xavfsizlik, jamiyat barqarorligi.

DOI: 10.5281/zenodo.23617299

Ijtimoiy o‘zgarishlar zamirida jamiyat xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiaytga ega hisoblanadi. Unga ko‘ra insonlarning hayoti, salomatligi, mol-mulki va huquqlarini himoya qilish maqsadida infratuzilma, huquqiy mexanizmlar va ijtimoiy munosabatlar orqali tashkil etilgan tizimdir. Bu tizim jamiyat ichidagi xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlar va choralarni o‘z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi jamiyatning umumiy farovonligini ta’minlash va har qanday tahdidlarga qarshi barqarorlikni saqlashdir. Biroq bugungi kunda jamiyat xavfsizligini va tartibini ta’minlash bilan bog‘liq ko‘plab muammolarning yuzaga kelayotganligi uning ilmiy-kontseptual assoslarini tadqiq etish va shu asosida tizimni modernizatsiyalashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

XXI asrdagi global o‘zgarishlarning mamlakatimiz tashqi siyosatiga ta’siri muhim masala bo‘lib, u O‘zbekiston diplomatiyasi uchun o‘ta dolzarbdir.

O‘zbekiston xalqaro maydondagi vaziyat va yuzaga kelayotgan har qanday tahlikadan qat’i nazar, uzining mustaqilligi va suvereniteti, xavfsizligi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda barcha fuqarolarning farovonligi ichonchli tarzda ta’minlanishiga qaratilgan siyosat olib borilmoqda[1.388].

Etimologiyaga ko‘ra xavfsizlik so‘zi xavfning yo‘q ekanligini bildiradi. Bu so‘zning tashkil etuvchisi – xavf so‘zidir. “Xavfsizlik”ini tushunish uchun avval “xavf” yoki “tahdid” kabi uning teskari tomonini o‘rganish zarur. “Xavf” ni salbiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu insonlar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi, shuningdek, tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatlar natijasida tashkilotlarning mavjudligi va rivojlanishi to‘xtab qolishi mumkin. Shunday qilib, “xavfsizlik” va “xavf” insonlar va tashkilotlarning kundalik hayoti hamda faoliyati davomida rejalashtirilmagan ziyon etkazish bilan bevosita bog‘liqdir. Ko‘pchilik ob’ektlar (sub’ektlar)ning xavfsizligi, “Jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida muhim tarkibiy tuzilma bo‘lib – faoliyat hisoblanadi, uning predmeti (yoki mahsuloti) esa axborotdir. Ushbu ob’ektlar yoki sub’ektlarga nisbatan xavfning bo‘lishi, axborot xavfsizligi haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi. Ma’lumki xavfning barcha ko‘rinishlari mos axborot jarayonlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, axborot

xavfsizligi axborot sohasini tavsiflab, u birgalikda jamiyat munosobat-larini tashkil etadi va shaxs, jamiyat hamda davlat ob’ektlari sifatida axbort va axborot infratuzilmalari bilan bevosita bog‘liq” [2.39]. Xavfsizlik turlarini turli sabablarga ko‘ra tasniflash mumkin. Xavf manbalariga qarab, xavfsizlikni tabiiy, texnogen va ijtimoiy turlarga ajratish mumkin. Jamiyat hayotini to‘rtta asosiy yo‘nalishga bo‘lish orqali esa siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy-madaniy xavfsizlik turlarini farqlash mumkin. Himoya ob’ektiga ko‘ra xavfsizlikning uch asosiy turini belgilash mumkin: shaxsiy xavfsizlik, jamiyat xavfsizligi va davlat xavfsizligi. Shuningdek, ushbu uchta asosiy tur doirasida ilmiy adabiyotlarda boshqa xavfsizlik turlari ham ko‘rsatilgan.

Jamiyat xavfsizligini ta’minlashning ahamiyati shundaki, ushbu huquqiy hodisa “davlatda sodir bo‘layotgan murakkab jarayonlarni diqqat markaziga oladi. Milliy xavfsizlikni, xususan, jamiyat xavfsizligini ta’minlash ma’lum ma’noda mamlakatni isloh qilishning sharti va ayni paytda maqsadi, degan fikr bor” [3.42]. Shunday ekan, jamiyat xavfsizligi jamiyatning barqarorligi uchun muhimdir. Agar jamiyatda jinoyatchilik yuqori bo‘lsa yoki favqulodda holatlarga tayyorgarlik yo‘q bo‘lsa, odamlarning hayoti va mol-mulki xatar ostida qoladi. Bundan tashqari, xavfsiz muhit insonlarning ruhiy holatini ham belgilaydi; xavotirli muhitlarda yashash odamlarda stress va depressiya paydo qilish ehtimoli yuqoridir.

Xavfsizlik ichki va tashqi toifalarga bo‘linadi. O‘z navbatida ichki xavfsizlik kategoriyasi ham bir qancha turlarga bo‘linadi. Jumladan; ichki xavfsizlikka milliy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborat xavfsizligi kabi turlarini kiritish mumkin. Bular haqida qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, milliy xavfsizlik- shaxs, jamiyat va davlatning hayot faoliyati davomida o‘zining muhim manfaatlarini ko‘zlab, xalqaro munosabatlarda teng huquqlilik asosida mustaqil ishtirok etishni hamda ichki barqarorlikni ta’minlashga tahdid solayotgan tashqi va ichki xavf-xatarlardan himoyalanish holatidir. Bu ta’rif milliy xavfsizlikning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan o‘zoro bog‘liqligini namayon etadi. Shu bois milliy xavfsizlikni ta’minlashda ichki omillar o‘rin tutadi. Shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligi milliy xavfsizlikning asosini tashkil etadi. Masalan milliy xavfsizlik tushunchasi asosan, “hayot, sog‘lik, huquq, shaxs erkinliklari, xususiy mulkchilikni himoya qilish, jamiyat va davlat xavfsizligi, yadro xavfsizlik, radiotsion xavfsizlik, tabiiy ofat, falokatlar va antropogen hodisalardan shaxs, jamiyat va davlatning himoyalanish holati ” tushuniladi

Xulosa qilinganda, jamiyat xavfsizligini ta’minlash uchun davlat organlari bilan birgalikda fuqarolar ham mas’ullik hissini sezishlari kerak. Fuqarolarning o‘z huquqlari va vazifalarini bilishi, jamoa hayotiga faol ishtirok etishi muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2022.

2. Стрельцов А.А. Теоретические и методологические основы правового обеспечения информационной безопасности России: Дис. док. юрид.наук. –М.:, 2004.

3. Позднышев А.Н. Институт государственной службы в сфере обеспечения общественной безопасности (теоретико-методологические проблемы): дис. … докт. юрид. наук. – М., 2003.

4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997.